

Omanov Shuhrat G‘aniyevich
Qarshi davlat universiteti
Nemis tili va adabiyoti kafedrası tayanch doktoranti
Email: omanov.shuhrat@mail.ru

NEMIS TILIDAGI “JA” MODAL PARTIKELINING O‘ZBEK TILIDA IFODA ETILISHI TAHLILI

Annotatsiya: *Mazkur maqolada nemis tilidagi “ja” modal partikelining umumnazariy jihatları tahlil qilingan, o‘zbek tilida ifoda etilishi, tarjima hamda uslubiy xususiyatlari yoritilgan.*

Kalit so‘zlar: *modallik; modal partikel; tarjima; chog‘ishtirma tahlil; uslubiy jihatlar; pragmatik jarayon; emotsionallik.*

Omanov Shukhrat Ganievich
Karshi State University
Doctoral student of the Department of German Language and Literature

ANALYSIS OF THE EXPRESSION OF THE GERMAN MODAL PARTICLE “JA” IN UZBEK LANGUAGE

Abstract: *This article analyzes the general theoretical aspects of the modal particle "ja" in German, and highlights its expression, translation, and stylistic features in Uzbek.*

Keywords: *modality; modal particle; translation; comparative analysis; methodological aspects; pragmatic process; emotionality.*

Оманов Шухрат Ганиевич
Каршинский государственный университет
Докторант кафедры немецкого языка и литературы

АНАЛИЗ ВЫРАЖЕНИЯ НЕМЕЦКОЙ МОДАЛЬНОЙ ЧАСТИЦЫ «JA» В УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКЕ

Аннотация: В статье анализируются общетеоретические аспекты модальной частицы «ja» в немецком языке, а также освещаются ее выражение, перевод и стилистические особенности в узбекском языке.

Ключевые слова: модальность; модальная частица; перевод; сравнительный анализ; методологические аспекты; прагматический процесс; эмоциональность.

Kirish

Yildan yilga rivojlanib borayotgan globallashuv jarayoni Yer yuzida yashayotgan insonlarning hamma sohadagi o'zaro ta'siri sezilarli darajada ortib borayotganini ko'rsatib beryapti, bu jarayonning turli jihatlari bo'yicha fikrlar esa undan-da tez rivojlanib, bizni xavotirlarga sola boshlaganiga ham ancha bo'lib qoldi, jumladan, bu jarayonning "qora" tomonlari ko'pligi haqidagi gaplar rosa baland aytilib matbuot uchun ham, ilmiy tadqiqotlar uchun ham katta manba bo'lyapti, ammo, eng qizig'i, bu globallashuv to'xtagani yo'q, balki yanada tezlashib, butun kundalik turmushimizga chuqur singib boryapti. Demak, globallashuvga ehtiyoj bor, xatto zaruriyat ham bor deya olamiz, chunki har qanday taraqqiyot o'zaro tasirga, boshqalarning tajribasini organishga asoslanadi. Mazkur jarayonda eng kop ta'sirni ozida aks ettiruvchilardan biri bu, albatta, milliy tillar hisoblanadi. Salbiy tasir natijasida deyarli har kuni qaysidir til "o'layotgani", ya'ni muloqot jarayonidan chiqayotgani yoki foydalanilmay qo'yilayotgani haqida ma'lumotlarni tez-tez uchratishimiz mumkin.

Adabiyotlar tahlili

Nemis va o'zbek tillaridagi modal partikellar A.Krivososov, H.Weydt, G.Helbig, M.Thurmair, U. Engel, H.Weinrich, S.Vural, Kwon Min Joe, W.Koller, G'.Abdurahmonov, O' Lafasov, D.O'rinboeva, U.Raximov, Sh.Safarov, S.V.Orlovalarning kitoblari, dissertatsiyalarida va boshqa ko'pgina manbalarda mufassal o'rganilgan.

Tadqiqot metodologiyasi

Tilshunoslik sohasida bugungi kunda olib borilayotgan tadqiqotlarda til va inson o'rtasidagi munosabat faol o'rganilmoqda. Til va madaniyat, til va etnografik guruhlarining o'zaro munosabatlari lingvistik tadqiqotlarning obyekti sifatida e'tirof etilmoqda. Mavzuni yoritishda qiyosiy tipologik, analiz va sintez, transformatsion, strukturaviy-semantik va funksional tahlil usullaridan foydalanildi.

Tahlillar va natijalar

Birinchi bo'lib nemis tilidagi "Modalpartikel" atamasi haqida ayrim ma'lumotlarni berib o'tish maqsadga muvofiq bo'ladi, chunki bu tilshunoslik atamasi haqida turlicha bahslar mavjud bo'lib, xususan, uning qamrovi, ya'ni qaysi birliklarni o'z ichiga olishi bo'yicha qarashlar ham har xil, albatta, bularning barchasi o'rinli bo'lgani uchun e'tiroz qilish o'rinsiz bo'ladi. Jumladan, MP atamasini o'zbek tiliga "modal yuklama" shaklida kalkalash ham ancha sayoz bo'lib chiqadi. Dunyo tilshunosligida nemis tilidagi modalpartikellar bo'yicha jiddiy tadqiqotlarni rus germanisti A.Krivososov (1963"Die Modalpartikel") va H.Weydt(1969 "Abtönungspartikel")lar boshlab berdi [1]. Mana shu davrdan boshlab nemis tilidagi modal partikellarni o'rganish keng quloch yoydi, germanist olimlar tomonidan qanchalik keng ko'lamda o'rganilganligini bu partikellar guruhini nomlashda ishlatilgan atamalarining o'zi ham ko'rsatib turadi.

Keyingi yillardagi tadqiqotlarda "Diskurspartikel" atamasi ham germanistikada faol qo'llanila boshlandi. Harald Weydt modalpartikellarni kommunikativ-pragmatik sohada o'rganish bo'yicha ishlarni boshlab berdi. Uning

tadqiqot ishi mavzusi “Abtönungspartikel. Die deutschen Modalwörter und ihre französischen Entsprechungen” bo‘lib, unda u nemis tilidagi modal so‘zlarning fransuzcha mos keluvchilarni tadqiq etib, “Abtönungspartikel” atamasini kiritdi, bu so‘zning nemis tilidagi lug‘aviy ma‘nosi “yaqqol ifodalash”, “aniq ko‘rsatmoq”, “burttirib ko‘rsatish”, “ta‘kidlash” kabi ma‘nolarni anglatadi. Modal partikelllar ham nemis tilida so‘zlovchining o‘zi aytayotgan fikriga alohida bir qo‘shimcha shaxsiy munosabatini ifodalashga xizmat qiladi. Yana ular aniq bir leksik ma‘noga ega bo‘lmay, balki gap turi va intonatsiyasi bilan birgalikda so‘zlovchining munosabatini ifodalab, ko‘pincha urg‘u olmasdan keladi.

Nemis tilida „JA“ so‘zi turli-tuman ma‘nolarni beradi, o‘g‘zaki nutqda shunchalik ko‘p ishlatiladiki, deyarli har bir gapda uni uchratish mumkin, ammo shunday bo‘lsa-da, u har-xil vazifalarda ishlatiladi, demak ma‘nosi ham turlicha bo‘ladi. Uni hadeb o‘zbek tilida „ha“ deya tushunaverish yoki shunday tarjima qilish jiddiy xatolik hisoblanadi. Uning nemis tilidagi bajaradigan vazifalari haqida germanist tadqiqotchilar quyidagi ma‘lumotlarni berganlar:

- „Antwortpartikel“ berilgan savollarga javob berish, ba’zida so‘rash orqali tasdiqlash kabi ma‘nolarni bildiradi.

A: Esst ihr Hammelfleisch?

B: Ja (,gern)

A: Dieses Obst ist zu teuer, ja?

B: Sie sind recht.

- „Gesprächspartikel“ gaplar tarkibida pausalarni to‘ldirish, so‘zlovchi fikrini jamlab olish uchun vaqtdan yutishda, yoki fikrlarini bir-biriga ulash uchun foydalaniladi.

Dann ist er weitergegangen, ja, und hat nichts mehr gesagt.

- “Gradpartikel” ot, sifat, fe‘llar oldidan kelib ularni ma‘noviy jihatdan darajalab ko‘rsatish uchun xizmat qiladi. Ko‘pincha “sogar” bilan kombinatsiyalashib keladi.

Diese Arbeit verlangt Fleiss, hohe Begabung, ja Besessenheit.

Die Fussballspieler, ja sogar die Trainer waren empört über diese Entscheidung des Schiedsrichters.

Ja modalpartikel sifatida lingvist olimlar tomonidan keng o'rganilgan. Bu haqida oldingi boblarda ma'lumotlar berib o'tilgan edi. Uning modal partikel sifatida anglatadigan ma'nolari gap turlari va vaziyatga bog'liq bo'lganligi sabab uni qanday ma'no anglatishini faqatgina matn bilan birgalikda anglash mumkin. Bu boshqa modal partikellarga ham tegishlidir. Yana bir jihati u birqancha boshqa modal partikellar bilan kombinatsiyalashib kela oladi.

- „bekannt“ so'zlovchi u orqali hamma yaxshi biladigan yoki hammaga tushunarli bo'lgan faktlar haqida ma'lumot beradi;

- Verstärkung so'zlovchi aytayotgan gap mazmunini kuchaytirib beradi;

- Überrashung so'zlovchining hayrati,ajablanishini ifodalaydi;

Modal partikellar eng ko'p qo'llanadigan gap turi mazkur gaplar bo'lib, ifodalaydigan ma'nosi haqida H.Weydt, G.Helbig [2], M.Thurmair [3], U.Engel [4] va boshqalarning tadqiqotlarida u orqali anglashiladigan ma'no „bekannt“, ya'ni so'zlovchi va tinglovchiga ma'lum informatsiya yoki „evident“ tushunilishi oson, hammaga ma'lum narsa haqida bo'ladi. U ishlatildimi, demak, shubhalanishga o'rin qolmaydi. Mutlaqo tushunarli va hammaga ravshan bo'lib turgan bu faktga bahslashib o'tirmasdan qo'shilishi talab qilinadi.Uni rus tilida ifodalanishini o'rgangan tadqiqotchi S.V.Orlova munosib ekvivalent sifatida же,ведь,да larni ko'rsatgan [5].

Es ist ja noch nicht alle Tage Abend. (hamma kunlar ham tundan iborat bo'lmaydi.)

Wir haben ja noch Zeit. (hali vaqtimiz bor-ku)

Yuqoridagi misollardan ko'rinyaptiki, so'zlovchi va tinglovchi orasida ma'lum informatsiya mavjud bo'lib bu bevosita pragmatik jarayon bilan bog'liqdir. Quyida badiiy asarlar tarjimalaridan olingan misollarni tahlil qilish bilan ularda qanday vositalar bilan tarjima qilinganini ko'rib chiqamiz.

Misollar Elke Haydnreich va Bernd Schroederlarning „Alte Liebe“ romani X.Quchqorova va F.Soatovlar tarjimasi, Bruno Apits „Nackt unter dem Wölfen“

romani Y.Egamova tarjimasidan olindi. Bu asarlarni tanlab olinishiga sabab ularda dialoglar ko'pligi bo'lib, nemis tilidagi modal partikellar ham huddi shu dialoglarda qo'llanadi. Birinchi bo'lib nisbatan yangi tarjima qilingan asar, 2013-yilda nashrdan chiqqan, „Alte Liebe“ (Azaliy ishq)dan olingan misollarga murojaat etamiz.

1. „Sie wollte nicht leben wie wir. Das wollen Kinder ja nie.“

- U biz singari hayot kechirishni istamasdi. Yoshlar hamisha shunday – kattalar yo'lida yurishni xohlashmaydi. (Alte Liebe)

Keksa yoshli ona – Lore qizining va, umuman, davr yoshlarining hayotga yengil qarashiga tanqid bilan qaraydi, o'zining turmushi bilan qizi va boshqalarning turmushini solishtirib ko'radi. Yoshlarning yengil-yelpi qarashlariga ichi achiydi. Tarjimada „ja“ orqali ifodalangan mazmun kengroq qilib o'zbekcha mentalitet bilan yoritilgan, butun boshli kirish birikma „Yoshlar hamisha shunday“ o'sha ma'noni ifodalashga harakat qilgan. Qisqa va aniqroq ifodalash uchun – da kuchaytiruv-ta'kid yuklamasidan ham foydalanish mumkin. „O'zbek tilining Akademik grammtikasi“da to'siqsizlik, ta'kid ma'nolari ko'rsatilgan, ammo jonli so'zlasuvda gap kesimiga qo'shilib ta'kid ma'nosi bilan birga ma'lumlik ma'nosi ham anglatadi. Buni bolalar hecham xohlamaydi-da.

2. „Natürlich, wir waren ja befreundet.“

- Albatta, biz axir yaqin do'st edik. (Alte Liebe)

Harri ayolining asossiz rashk va pichingli gaplariga javob sifatida mana shunday deb javob qaytaradi. Tarjimada ular o'rtasidagi „ma'lumlik“ axir kuchaytiruv-ta'kid yuklamasi bilan ifodalashga harakat qilingan. O'zbek tilidagi manbalarda uning „ma'lumlik“ni ifodalashi haqida biror ma'lumot yo'q. O'.Lafasov o'z ishida bu yuklamaning og'zaki nutqda ta'kid-kuchaytiruv, e'tirof, so'roq-ta'kid, ta'kid-e'tiroz singari ma'no noziklari ifodalashini ko'rsatgan. Mazkur misolning o'zbekcha tarjimasi asliyatdagi mazmunni ifodalash uchun yetarli ma'noni anglatyapti deyish mumkin. Rost, biz do'stlashib qolgandik-ku!

3. „Sie war ja auch keine Kunnstlein“.

- O'zi ham san'atkor emasdi. (Alte Liebe)

Misolda Harrining bir ayol haqidagi “Uning familiyasi san’atkorlarga munosib emasdi” degan gapiga javobi olingan. Ayolga nisbatan soʻzlovchining munosabati yaxshi emas. “evident”lik, ya’ni aytilayotgan gapdagi aniqlik, oson anglab olinish imkoni qayta tiklangan. Albatta, tarjima matnida emotsionallikni chuqurroq ifodalash uchun oʻzbek tilida bir qator imkoniyatlar mavjud, masalan, San’atkor emasdi-ku u.

Yana bir misolga murojaat etamiz.

4. “Im September. Na, das ist ja noch eine Weile hin. Vielleicht”.

- Sentabrda. Ungacha hali vaqt bor ekan. Balki ungacha yana oʻylab koʻrar.

(43) (Alte Liebe)

Toʻyni qachonligini soʻragan Harriga Lore javob berdi. Qizi turmushga chiqayotgan odamni yoqtirmagan Harri oʻz munosabatini bildiriyapti. Tarjimada bu holatni “hali” soʻzi va kesim tarkibidagi “ekan” toʻliqsiz fe’li yordamida tiklangan. “Hali” soʻzi “Oʻzbek tilining izohli lugʻti”da bir nechta ma’no ifodalashi koʻrsatib oʻtilgan. Biri “oxiriga yetmaganlik”, “tugallanmaganlik” ma’nolari sanaladi. Oʻzbek tilining Akademik grammatikasi”da “ekan” toʻliqsiz fe’li koʻp ma’nolarni hosil qilishda ishtirok etishi koʻrsatilgan. Shulardan biri “oldin ma’lum boʻlmay, keyin ma’lum boʻlgan informatsiyani bildiradi” tarzidagi ma’no boʻlib, bu oʻrinda munosib tanlangan.

5. “Sein neues Buch. Du kennst ja nicht mal die alten. Du liest ja gar nicht mehr. Golf”

- Nima sabab boʻlardi. Yangi kitobi taqdimoti boʻladi. Sen eskilarini ham bilmasang kerak. Axir, kitob oʻqimaysan-ku. Sen shoʻrlikka golf boʻlsa boʻldi.(22)
(Alte Liebe)

Misolda ikkita gapda partikellar kombinatsiyalashuvi yuz bergan. Birinchi gap tarkibida partikellar kombinatsiyalashuvi aytilayotgan xabar har ikkalasiga ham ma’lumligiga ishora qilyapti, ammo tarjimada uni taxmin, noaniqlik tarzida ifodalangan. Ikkinchi gap tarkibidagi partikellar ma’nosi esa aniq ifodalangan. Tarjimada - ku kuchytiruv-ta’kid yuklamasini qoʻllash orqali ma’no kuchaytirilishi bilan birga soʻzlovchi va tinglovchiga ma’lum boʻlib turgan informatsiyaga ishora

qilyapti, Harrining ko‘p kitob o‘qimasligi ikkalasiga ham ma’lum. Keyingi gapda tarjimon so‘zlovchining norozilik munosabati ham ajoyib tarzda o‘zbekona shaklda tasvirlangan: Sen sho‘rlikka golf bo‘lsa bo‘ldi.

Aslida tarjima matnida bir gap orqali ifodalanayotgan mazmunni keyingisi orqali ham qayta tiklash mumkin yoki tarjimaning mavjud metodlari asosida yangi gaplar bilan to‘ldirish, ba’zida qoldirib ketish mumkin.

6. “Aber zu was auch Ansporn. Ich hab ja selbst keine Lust zu grossen Taten. Gut, ich geh ab und zu ins Theater, in ein Konzert”.

- Nega endi rag‘bat bo‘lsin? O‘zimning katta ishlarga qo‘lim bormaydi-ku. To‘g‘ri ba’zi-ba’zida tetrga, konsertga borib turardim. (Alte Liebe)

Harrining aytgan ushbu gapida o‘zi va atrofdagilarga uning bu hislati “ma’lum”ligi anglashiladi. Tarjimada asliyatdagi bu mazmun to‘g‘ri ifodalangan.

7. “Harry, bitte jetzt ein für alle Mal, ich möchte darüber nicht mehr reden. Es ist unsere Tochter, sie heiratet, wir fahren da hin und aus.”

“Aha. Und aus. Die heiratet ja dauernd.”

- Harri, iltimos, umringdan baraka top, bu haqda boshqa gapirishga qurbim yetmaydi. U bizning qizimiz, turmushga chiqyapti, to‘yga boramiz, gap tamom.

- Tamom emish, qizing turmushga chiqishdan charchamaydi-ku!

Ushbu misolda ham tarjimon asliyatdagi mazmunni “ma’lum”likni to‘g‘ri anglab tarjimada o‘sha mazmunni to‘liq ochib bergan.

Yuqorida nemis tilidagi “ja”modal partikelining o‘zbek tilida aniq ifodalash uchun eng qulay va qisqa ekvivalenti tanlangan. - ku aslida o‘zbek tilshunosligida kuchaytiruv-ta’kid yuklamasi deya ta’riflanadi, ammo og‘zaki nutqda u huddi nemis tilidagi “ja” bajaradigan funksiyani bajaradi, ya’ni qo‘shimcha ma’no ottenkasi beradi. Bu ma’no ottenkasi “so‘zlovchi va tinglovchiga ushbu aytilayotgan xabar ma’lum”ligidir. Demak, ortiqcha bahslashib o‘tirish shart emas.

Bu fikrimizni tasdig‘ini yana bir asar –“Nackt unter dem Wölfen” (Qashqirlar changalida) romani tarjimasidan olingan misollar tahlilida ham ko‘ramiz.

1.Bochow lächelte im Mundwinkel.

- Du sitzt ja vor ihnen.

Boxov miyig'ida kuldi.

-Ularning oldida o'tiribsan-ku. (Nackt unter dem Wölfen)

Misoldagi tarjimada“ja” - ku bilan berilgan. Bu jarayonda ta'kidlash ma'nosi bilan birgalikda “ma'lumlik” ma'nosi ham aks etmoqda. Bu qo'shimcha ma'no yuklamalarning presuppozitsion ma'nosi deyiladi. Bu xodisa pragmatikada chuqur tahlil etilgan . Umuman olganda partikellar va o'zbek tilidagi yuklamalar hammasi vaziyatga, gap turiga hamda gapning rema va tema bo'linishiga, o'zaro suhbatda esa intonatsiyaga qarab yangi-yangi ma'nolar hosil qiladi. Partikel bilan shugullangan tadqiqotchilar bu so'zlar guruhi pragmatikada asosiy o'rganilish obyekti hisoblanishi va ularning pragmatik xususiyati o'ta muhimligini aytishadi. Pragmatika tilshunoslikning alohida bir sohasi sifatida kommunikativ maqsadga va vaziyatga bog'liq til shakllari bilan shug'ullanadi. Mana shularga asoslanib ushbu yuklamani tinglovchi va so'zlovchi orasidagi “ma'lum bo'lgan” informatsiyani ham ifodalayotganini ko'rish mumkin.

1.Wo begann sie, wo begann die Lüge? – Es ging ja nicht um das Kind!

Haqiqat qaerdan boshlanadi-yu, yolg'on qaerdan boshlanadi? Gap mutlaqo bola haqidamas-ku! (160)(Nackt unter dem Wölfen)

Navbatdagi misolda ham - ku o'zbek tilida asliyat tilida ifodalangan ma'noni qayta tiklangan. Mazkur asar tarjimasida o'rganib chiqilgan misollarda qo'llanilgan “ja” o'zbek tilida deyarli - ku bilan ifodalangan. Mana shu sabab faqat ikkita misol tahlili bilan cheklanib quya qoldik.

“Aussagesatz” – darak-xabar mazmunidagi gaplardagi “ja” modal partikelini o'zbek tilida ifodalash uchun munosib ekvivalent – ku kuchaytiruv-ta'kid yuklamasi hisoblanadi. Yana ekvivalent sifatida o'zbek tilidagi modal(kirish) so'zlar va kirish birikmalardan ham foydalanish mumkin: ma'lumki, sir emaski, ko'rnib turibdi, bilasan,shubhasiz, umuman kabilar huddi shu mazmun uchun xizmat qiladi.

Xulosa qilish mumkinki, dunyo tilshunosligida modallik kategoriyasini lingvistik asosda chuqurroq o'rganish kengaymoqda, ayniqsa, bu tilga yangicha

yondashuv asosida qarala boshlaganidan so'ng yuqori pog'onaga ko'tarildi. Modallik kognitiv lingvistikaning asosiy o'rganish obyektiga aylandi;. Nemis tilida modallik kategoriyasini nemis tilida modal fe'llar, fe'lning kelasi zamon shakli, modallashgan fe'llar, modal so'zlar, modal yuklamalar, modal ravishlar, ayrim predloglarning modal ma'nolari ifodalab beradi. Bu esa ularni yanada chuqurroq hamda chog'ishtirma tadqiq etishning dolzarbligini belgilaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Weydt H. Abtönungspartikel. Die deutschen Modalpartikeln und ihre französischen Entsprechungen. Bad Homburg/Berlin/Zürich: 1969.
2. Helbig G. Lexikon der deutschen Partikeln. VEB Verlag Enzyklopadie Leipzig: 1988.
3. Engel U. Deutsche Grammatik – Neubearbeitung-. München: Iudicium Verlag, 2004.
4. Thurmair M. Modalpartikeln und ihre Kombination. Tübingen: Max Hueber Verlag 1989.
5. Орлова С.В. Сопоставительный анализ семантики немецких частиц denn, doch и ja их русских переводных “эквивалентов”. Автореферат.к.ф.н. Москва: 2012.
6. Heidenreich Elke. Schroeder Bernd. Azaliy ishq. Roman. Tarjimonlar Qo'chqorova H., Soatov F. – Toshkent: Nihol, 2013